

Cheklangan kafolat

Ishlab chiqaruvchi "Research In Motion Limited" kompaniyasi ("RIM") hamda o'zining Portativ BlackBerry kommunikatori (u BlackBerry Cradle bilan birgalikda BlackBerry Apparaturasini tashkil etadi), BlackBerry Stol Ustida Ishlatiladigan Sistemalar Programma Ta'minoti hamda ular bilan bog'liq simsiz ma'lumot yetkazish xizmati va hujjatlarni o'z ichiga oluvchi BlackBerry Qarorini yetkazib beruvchi Centrum House, 36 Station Road, Egham, Surrey, UK TW20 9LF manzili bo'yicha ro'yxatga olingan shu'ba korxonasi bo'lmish № 4022422 raqamli "Research In Motion UK Limited" kompaniyasi orqali Sizga, ya'ni so'nggi foydalanuvchiga (quyida "Siz" deb yuritiladi) BlackBerry Apparaturasi Siz uni asosiy so'nggi foydalanuvchi sifatida sotib olgan paytdan e'tiboran bir (1) yillik muddat ichida har qanday ishlab chiqarish nosozliklaridan va ishlatilgan materiallar bo'yicha nuqsonlardan holi bo'lishini kafolatlaydi ("Kafolat Muddati"). Mazkur Cheklangan Kafolat boshqa shaxsga topshirilishi mumkin emas. BlackBerry Apparaturasi yoki BlackBerry Apparaturasining bir yoki bir necha detali Kafolat Muddati ichida RIM ixtiyoriga ko'ra ta'mirlanadi yoki almashtiriladi, bunda ehtiyot qismlar yoki mehnat haqi undirilmaydi. Agar BlackBerry Apparaturasi (yoki uning biron-bir detali) Kafolat Muddati ichida ta'mirlansa yoki almashtirilsa, Kafolat Muddati u ta'mirlangan yoki almashtirilgan paytdan e'tiboran 91 kun o'tishi bilan yoki dastlabki sotib olingan sanadan e'tiboran bir yil o'tishi bilan tugaydi. BlackBerry Apparaturasining xizmat qilish muddati ikki (2) yil. **Sizning BlackBerry Apparaturangiz bo'yicha mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanish haqida ma'lumot uchun Sizdagi BlackBerry Apparaturasining Foydalanuvchisiga Qo'llanma risolasiga murojaat qiling.**

Mazkur Cheklangan Kafolat odatdagi eskirish hollarida yoki BlackBerry Apparaturasining biron-bir detali RIMning ruxsatisiz boshqa birov tomonidan ochilsa yoki ta'mirlansa, shuningdek BlackBerry Apparaturasi noto'g'ri ishlatilgani, namlangani yoki suvga tushgani, issiq joyda yoki issiqqa yaqin qolgani, tasodif shikastlangani, noo'rin va e'tiborsizlik bilan ishlatilgani yoki RIM yo uning vakolatli xizmat vakilidan boshqa shaxs tomonidan ta'mirlangan yoki o'zgartirilgani oqibatida buzilsa, uni ta'mirlash yoki almashtirish uchun qo'llanilmaydi. Mazkur Cheklangan Kafolat BlackBerry Apparaturasining sirtiga yetkazilgan moddiy zararni, jumladan LCD ekrandagi yoriqlarni yoki tirnalishlarni qoplamaydi. Mazkur Cheklangan Kafolat unda ta'riflangan BlackBerry Apparaturasidan boshqa mahsulotga yoki periferik asbob-uskuna yetkazgan har qanday ziyonga nisbatan qo'llanilmaydi. Mazkur Cheklangan Kafolat, shuningdek, BlackBerry Apparaturasini RIM tomonidan aniq maqullanmagan yoki berilmagan ehtiyot qismlar, mahsulotlar, xizmatlar yoki yordamchi yo periferik asbob-uskunalar bilan birgalikda ishlatish natijasida kelib chiqqan noto'g'ri ishlash hollarida hamda RIM bunday noto'g'ri ishlash BlackBerry Apparaturasining aybi bilan yuzaga kelmagan deb topsa qo'llanilmaydi. Bundan tashqari, agar bunday noto'g'ri ishlash foydalanuvchining BlackBerry Apparaturasini, BlackBerry Stol Ustida Ishlatiladigan Sistemalar Programma Ta'minotini va ular bilan bog'liq simsiz ma'lumot yetkazish xizmati va hujjatlarni o'z ichiga oluvchi BlackBerry Qarorining ("BlackBerry Qarori") paketidagi Xavfsizlik Texnikasi Qo'llanmasiga rioya qilmasligi oqibatida yuzaga kelsa, Cheklangan Kafolat bekor qilinishi mumkin, agar u bekor qilinmasa, u holda qo'llanilmaydi. Ma'lumotlarning ehtiyot nusxasini saqlash BlackBerry Apparaturasidan foydalanuvchi shaxsning majburiyatidir. RIM har qanday paytda shikastlangan yoki yo'qolgan ma'lumotlar uchun, jumladan, cheklanmagan holda, BlackBerry Apparaturasiga xizmat ko'rsatish paytida yoki sinxronlash vositalarini qo'llash oqibatida yo'qolgan yoki shikastlangan ma'lumotlar uchun javobgar bo'lmaydi. BlackBerry Qarorining bir qismi sifatida ko'rsatilayotgan har qanday

simsiz ma'lumot yetkazish xizmatlari RIM yoki RIMning vositachisi orqali uchinchi shaxs yoki mobil aloqa operatori yordamida ko'rsatilgan hollarda RIM simsiz ma'lumot yetkazish xizmati har doim mavjud bo'lishini yoki tegishli ravishda ishlashini kafolatlay olmaydi. Mobil aloqa operatori BlackBerry Qarori bo'yicha qanday kafolatlar va xizmat darajasini taklif eta olishini aniqlash uchun Siz shunday mobil aloqa operatoriga murojaat qilishingiz lozim. Mana shu va boshqa sabablarga ko'ra, favqulodda holatlar yoki hayot uchun xavfli yoki keskin vaziyatlar yuzaga kelganda ma'lumotlarni yetkazish jarayonida BlackBerry Qaroriga ishonish maqsadga muvofiq emas; va Rim bunday ishonish yoki simsiz ma'lumot yetkazish xizmatining ishlamasligi yoki Siz BlackBerry Qaroridan foydalanishingiz uchun uning mavjud emasligi, jumladan, cheklanmagan holda, Siz BlackBerry Qarorini ishlatmoqchi bo'lgan hudud xizmat ko'rsatish doirasidan tashqarida bo'lganligi oqibatida yuzaga kelgan hodisalar yoki ko'rilgan zararlar uchun Rim o'z nomidan va o'zining vositachilari nomidan har qanday javobgarlikdan bosh tortadi.

BLACKBERRY APPARATURASINI YOKI NOSOZ DETALNI TA'MIRLASH VA ALMASHTIRISH BLACKBERRY QARORINI SOTIB OLISH VA ISHLATISH BORASIDA BERILGAN YAGONA HIMOYA VOSITASIDIR. RIM O'Z NOMIDAN, O'ZINING DISTRIBUTORLARI VA BLACKBERRY QARORINING VOSITACHILARI NOMIDAN HAMDA RIM TOMONIDAN NAZORAT QILINUVCHI YOKI RIM BILAN UMUMIY NAZORAT OSTIDA BO'LGAN HAR QANDAY KOMPANIYA NOMIDAN YOKI RIMNING SHU'BA KORXONASI NOMIDAN (BIRGALIKDA "RIM GURUHI KOMPANIYALARI", ALOHIDA ESA "RIM GURUHI KOMPANIYASI" DEB ATALADI) USHBU CHEKLANGAN KAFOLATDA HAR QANDAY BOSHQA ANIQ BERILGAN YOKI NAZARDA TUTILGAN KAFOLATLAR, SHARTLAR, ISHONTIRISHLAR, MAQULLASHLAR YOKI GARANTIYALAR, JUMLADAN, CHEKLANMAGAN HOLDA, SOTUVGA YAROQLILIK, BOZOR SIFATI, QONIQARLI SIFAT, MA'LUM BIR ISHGA YOKI MAQSADGA MUVOFIQLIKLIK, EGALIK HUQUQI, HUQUQIY TO'SIQLARNING YO'QLIGI YOKI BOSHQA NARSALAR YUZASIDAN BERILGAN YOKI QONUNGA MUVOFIQ, ODATGA KO'RA YOKI JORIY TARTIB YOKI SAVDO-SOTIQ TAOMILIGA BINOAN YUZAGA KELUVCHI KAFOLATLARDAN VOZ KECHADI. SIZNING ISTE'MOLCHI SIFATIDA MAJBURIY QONUNIY HUQUQLARINGIZ, AGAR SIZ BUNDAY MAJBURIY HUQUQLARGA EGA BO'LSANGIZ, USHBU MODDAGA MUVOFIQ CHEKLANMAYDI.

HECH QANDAY HOLATDA RIM YOKI RIM GURUHI KOMPANIYASI PROGRAMMA TA'MINOTINI ISHLATISH YOKI ISHLATA OLMASLIK NATIJASIDA KO'RILGAN HAR QANDAY BILVOSITA, QO'SHIMCHA, MAXSUS YOKI BOG'LIQ ZIYON YOKI ZARARLAR UCHUN (JUMLADAN, CHEKLANMAGAN HOLDA, BOY BERILGAN FOYDALAR OQIBATIDAGI ZARARLAR, ISH JARAYONINING TO'XTASHI, ISH MA'LUMOTLARINI YO'QOTISH YOKI BOSHQA MODDIY ZARARLAR), RIM VA/YOKI RIM GURUHI KOMPANIYASI BUNDAY ZARARLAR KO'RILISHI MUMKINLIGIDAN XABARDOR QILINGAN BO'LSA HAM, JAVOGBAR BO'LMAYDI. MAZKUR CHEKLASH BUNDAY ZARARLARNI QOPLASH TALAB QILINGANLIGI, SUD JARAYONIDA DA'VO QILINGANLIGI YOKI DELIKTDA YO SHARTNOMADA KO'RSATILGANLIGI, YOXUD KAFOLATGA BINOAN YO HAR QANDAY BOSHQA QONUN YOKI DA'VO SHAKLIGA MUVOFIQ QOPLANISHI TALAB QILINGANLIGIDAN QAT'IY NAZAR QO'LLANISHGA MO'LJALLANGAN VA QO'LLANADI. HECH QANDAY CHEKLASHLAR QO'LLANILMAYDIGAN HOLAT

BO'LMISH O'LIM YOKI SHAXSIY JAROHATLANISH BILAN BOG'LIQ JAVOGBARLIKDAN TASHQARI, RIMNING, RIM GURUHI KOMPANIYALARINING VA BLACKBERRY QARORINING HAR QANDAY VAKOLATLI DISTRIBUTORI YOKI VOSITACHISINING USHBU SHARTNOMAGA MUVOFIQ KO'RILGAN ZIYON YOKI ZARARLAR UCHUN SIZNING OLDINGIZDAGI JAMI JAVOGBARLIGI NOSOZ BLACKBERRY APPARATURASINI ALMASHTIRISH BAHOSIDAN OSHMAYDI. Ushbu Shartnomaning hech bir qoidasi bevosita RIMning yoki uning biron-bir ishchisi yoki vakilining sovuqq'onligi oqibatida yuzaga kelgan o'lim yoki shaxsiy jarohatlanish hodisasi uchun javobgarlikni bekor qilmaydi yoki bekor qilishi yoki biron-bir yo'l bilan cheklashi mumkin emas.

BLACKBERRY KORXONA SERVERI PROGRAMMA TA'MINOTI, STOL USTIDA ISHLATILADIGAN SISTEMALAR UCHUN PROGRAMMA TA'MINOTI, BARCHA HUJJATLAR VA HAR QANDAY BLACKBERRY APPARATURASIDA O'RNATILGAN PROGRAMMALAR UCHUN CHEKLANGAN KAFOLAT SIZGA ALOHIDA BERILGAN PROGRAMMA TA'MINOTI BO'YICHA LITSENZIYA SHARTNOMASIDA ALOHIDA BERILGAN. ALOHIDA BUYURTMA ASOSIDA YETKAZILADIGAN HAR QANDAY BLACKBERRY AKSESSUARI UCHUN CHEKLANGAN KAFOLAT HAM SHUNDAY AKSESSUAR BILAN BIRGA BERILADIGAN ALOHIDA CHEKLANGAN KAFOLATDA BERILADI.

RIMning biron-bir bajarilmagan majburiyatdan voz kechishi bunday bajarilmagan majburiyatdan umuman voz kechganligini yoki biron-bir boshqa bajarilmagan majburiyatdan voz kechganligini anglatmaydi.

Ushbu Cheklangan Kafolat Angliya va Uels qonunlariga muvofiq boshqariladi va talqin etiladi, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan huquqlarni boshqaruvchi huquqiy tizim bundan mustasno. Ushbu Cheklangan Kafolat taraflari (birgalikda "Taraflar" deb alohida "Taraf" deb yuritiladi) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro mahsulotlar oldi-sotdi shartnomalari to'g'risidagi Konvensiyasining mazkur Cheklangan Kafolatga butunlay tatbiq etilmasligi to'g'risida kelishib oldilar. Ushbu Cheklangan Kafolat yuzasidan yo unga bog'liq ravishda kelib chiqqan barcha kelishmovchilik va nizolar batamom hakamlar sudida hal etiladi. Arbitr qabul qilgan qaror qat'iy bo'lib, Taraflar tomonidan bajarilishi shart (aniq xato bo'lgan hollar bundan mustasno). Arbitr qarori yozma va asoslangan bo'lishi lozim. Arbitr qarorida arbitraj jarayonini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar ko'rsatilib, ular arbitr ma'qul deb topgan miqdorda Taraflar tomonidan to'lanadi. Agar Sizning davlatingizdagi qonunlarda boshqa hollar taqiqlangan bo'lmasa, arbitraj jarayoni: (i) Angliyaning London shahrida o'tkaziladi; (ii) Angliya qonunlariga muvofiq o'tkaziladi; (iii) ingliz tilidan o'tkaziladi; (iv) Xalqaro savdo palatasining arbitraj qoidalariga ("Qoidalar") muvofiq hal etiladi; va (v) aytilgan Qoidalarga muvofiq tayinlangan bitta arbitr tomonidan ko'rilib, Taraflar bunday arbitrning nomzodi yuzasidan u tayinlangan paytdan e'tiboran 30 kun ichida o'zaro kelishib olishi lozim, agar ular kelisha olmasalar, arbitr Taraflardan birining talabiga binoan arbitraj jarayonini o'tkazish haqidagi talab tushgan paytda Britaniya Kompyuter Jamiyatining Prezidenti lavozimini egallagan shaxs (yoki Prezident nomidan harakat qilish uchun tegishli ravishda tayinlangan shaxs) tomonidan tayinlanadi. Taraflar o'rtasidagi hech bir nizo yoki Sizdan boshqa shaxs ishtirokidagi boshqa nizolar RIMning oldindan bergan yozma roziligisiz birlashtirilishi yoki qo'shib ko'rilishi mumkin emas.

Agar ushbu Cheklangan Kafolatning biron-bir qoidasi noqonuniy yoki majburiy bajarilish kuchini yo'qotgan deb topilsa, bunday noqonuniylik yoki majburiy bajarilish kuchini yo'qotish natijasida Cheklangan Kafolatning boshqa qoidalari qonuniylikini yoki majburiylik kuchini yo'qotmaydi, balki (agar bunday deb hisoblamaslik bundan kelib chiqmasa) Cheklangan Kafolat bunday noqonuniy yoki majburiy bajarilish kuchini yo'qotgan qoida yoki qoidalar unga kiritilmagandek talqin etilib, har bir Tarafning huquq va majburiyatlari ham tegishlicha ko'riladi va amalga oshiriladi.

Ushbu Cheklangan Kafolat ingliz tilidan boshqa tilga o'girilgan holda, agar ingliz tilidagi nusxa va uning boshqa tildagi tarjimai o'rtasida biron-bir ixtilof yoki nomuvofiqlik kelib chiqsa, ingliz tilidagi nusxa ustunlik qiladi.

Agar ushbu Cheklangan Kafolat hamda BlackBerry Apparaturasining komplektidagi har qanday kafolat o'rtasida biron-bir nomutanosiblik bo'lsa, mazkur Cheklangan Kafolat qoidalari qo'llaniladi.

© 2006 Research In Motion Limited. Barcha huquqlar himoyalangan. O'zaro bog'liq BlackBerry va RIM belgilari, tasvirlari va ramzlari oilasi "Research In Motion Limited" kompaniyasining maxsus mulki hisoblanadi. RIM, Research In Motion, 'Always On, Always Connected', "envelope in motion" belgilari va BlackBerry logosi AQSh Patent va Savdo Belgisi Boshqarmasida ro'yxatga olingan bo'lib, boshqa davlatlarda ham ro'yxatga olinish jarayonida bo'lishi yoki ro'yxatga olingan bo'lishi mumkin. Barcha boshqa belgilar, mahsulot nomlari, kompaniya nomlari, savdo belgilari va xizmat belgilari o'zlarining tegishli egalarining mulkidir. Portativ kommunikatorlar va/yoki bog'liq programma ta'minoti avtorlik huquqi, xalqaro shartnomalar va turli patentlar bilan himoyalangan, jumladan quyidagi bir yoki bir necha AQSh patentlari bilan himoyalangan: 6,278,442; 6,271,605; 6,219,694; 6,075,470; 6,073,318; D,445,428; D,433,460; D,416,256. Boshqa patentlar dunyoning boshqa davlatlarida ro'yxatga olingan yoki ro'yxatga olish jarayonida. Amaldagi patentlarning ro'yxatini www.rim.net/patents.shtml manzili bo'yicha topishingiz mumkin.